INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://science-research.org.uz/index.php/ITSE

ESHITISHDA NUQSONI BOR BOLALARNI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mirzaakbarov Dilshodbek Dovlatboyevich
Farg‘ona davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
mdilshodbek@mail.ru , https://orcid.org/0000-0002-5146-0467
Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi
Farg‘ona davlat universiteti Maxsus pedagogika. Surdopedagogika yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Unda zamonaviy axborot vositalari, multimedia dasturlari, interaktiv ta’lim platformalari va maxsus texnik qurilmalarning o‘quv jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, axborot texnologiyalari orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqiy, kognitiv va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar, axborot texnologiyalari, maxsus ta’lim, multimedia, interaktiv o‘qitish, raqamli kompetensiya, inklyuziv ta’lim.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности использования информационных технологий в обучении детей с нарушениями слуха. Анализируется значение современных информационных средств, мультимедийных программ, интерактивных образовательных платформ и специальных технических устройств в учебном процессе. Также показаны пути развития речевых, когнитивных и социальных навыков у слабослышащих детей с помощью ИКТ.
Ключевые слова: дети с нарушениями слуха, информационные технологии, специальное образование, мультимедиа, интерактивное обучение, цифровая компетентность, инклюзивное образование.

Annotation: This article explores the possibilities of using information technologies in the education of children with hearing impairments. It analyzes the role of modern information tools, multimedia programs, interactive learning platforms, and special technical devices in the educational process. The paper also highlights ways to develop the speech, cognitive, and social skills of hearing-impaired children through ICT.
Keywords: hearing-impaired children, information technologies, special education, multimedia, interactive learning, digital competence, inclusive education.

KIRISH.

Zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan, shuningdek, Respublikamiz Hukumatining ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan vazifalarining ijrosini ta’minlovchi boshqa hujjatlarda o‘qitishning zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va shu orqali uzluksiz ta’lim samaradorligini oshirishga alohida e’tibor berilgan. O‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘qitishning zamonaviy usullaridan eng muhimi bo’lib, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradi. Mazkur usul o‘ziga xos didaktik va uslubiy asoslardan iborat. Har bir fan uchun ishlab chiqilgan dastur asosida uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda axborot texnologiyalarini qo‘llash pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bois mamlakatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan jahon andozalari darajasiga ko‘tarish nuqsoni davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu vazifalarni hal qilish uchun esa birinchi

navbatda o‘quv jarayonini tubdan isloh qilish, unga jahonning rivojlangan davlatlarida keng qo‘llanilayotgan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni izchillik bilan tadbiq etish zarur.

Lersilp hamda Wagino eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda o‘qitish samaradorligini oshirish uchun axborot texnologiyalarining kommunikativ funksiyasini tahlil qilgan.

Shuningdek, F.U.Qodirova (2022) va D.A.Usmonova (2020) tadqiqotlarida o‘zbek tajribasi asosida maxsus maktablarda multimedia vositalarining o‘quvchilarning idrokini faollashtirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Axborot texnologiyalari — bu kompyuter, internet, multimedia, interaktiv doska, planshet, mobil ilovalar va boshqa texnik vositalar orqali axborotni yaratish, saqlash, uzatish va o‘rganishga yordam beruvchi vositalar. Texnologiyalar alohida ehtiyojli odamlarning muloqotlari jarayonida vositachilar bo‘lishi mumkin. Kommunikatsiya jarayonida qiyinchilikka uchraydigan foydalanuvchilarning har bir toifasi uchun maxsus yordamchi qurilmalar va dasturiy ta’minot tanlanishi va moslashtirilishi lozim. Avvalo, gap kompyuter kommunikatsiyani yengillashtiradigan, ayrim hollarda esa, atrofdagi olam bilan munosabatning yagona imkoniyati bo‘lib qoladigan noyob resurs sifatiga egaligi haqida bormoqda. Masalan, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari muloqotda qiynaladigan odamlarga o‘z qobiliyatlariga eng mos keladigan holda amalga oshirish, muloqotdagi qiyinchiliklar harakat nuqsonlari tufayli murakkablashadigan odamlar uchun esa, bunday texnologiyalar ko‘p hollarda tashqi olam bilan aloqada o‘z fikrlash va ehtiyojlarini ifoda etish imkonini beruvchi yagona usul hisoblanadi.

Bundan tashqari ayrim o‘quvchilar toifalarining harakatlanish imkoniyatlari cheklanganligi hamda o‘qituvchi-o‘rgatuvchi kadrlar yetishmasligi (bunday hollar maxsus ta’limda kam) munosabati bilan masofaviy kommunikatsiya metodlaridan foydalanish korreksion ta’lim jarayoni uchun dolzarb bo‘lib qolishi mumkin.Ta’lim sohasidagi kommunikatsiyalar va texnologiyalar masalalari bo‘yicha Britaniya agentligi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra maxsus ta’lim tizimida AKTlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘qishi, kommunikatsiyasi va o‘zaro faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

NATIJA.

Eshitishida nuqsoni bor bolalarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ularning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, idrokini rivojlantiradi hamda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ko‘proq ko‘rish orqali axborotni qabul qiladilar, shuning uchun ularga ta’lim berishda vizual va multimedia vositalaridan foydalanish muhimdir. Masalan: videodarslar, interaktiv doskalar, subtitrli (yozuvli) videomateriallar, animatsiyalar va multimedia dasturlari bu bolalarning mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi va motivatsiyasini kuchaytiradi. Onlayn platformalar yordamida o‘quv mashg‘ulotlarini qiziqarli shaklda tashkil etish mumkin.

Shuningdek, maxsus logopedik dasturlar, nutqni rivojlantirishga mo‘ljallangan mobil ilovalar va eshitish apparatlari bilan mos keluvchi interaktiv dasturlar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning individual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.O‘qituvchi axborot texnologiyalarini qo‘llashda har bir bolaning eshitish darajasi, idrok xususiyatlari va nutq imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Shu tarzda texnologiyalar inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish vositasiga aylanadi.

Axborot texnologiyalari eshitishida nuqsoni bor bolalarning ta’lim jarayonini yengillashtiradi, ularda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi hamda ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlaydi. Demak, zamonaviy texnologiyalar — bu maxsus ta’limda samaradorlikni oshiruvchi eng muhim vositalardan biridir.

Raqamli kompensatsiya — bu raqamli texnologiyalar orqali eshitish, ko‘rish yoki nutqdagi cheklovlarni yumshatish, ularning o‘rnini qisman to‘ldirishga xizmat qiluvchi usuldir. Eshitishida nuqsoni bor bolalarda bu jarayon axborotni boshqa sezgi orqali (ko‘rish, teginish) yetkazish orqali amalga oshiriladi. Masalan: eshitishida nuqsoni bor bolalar uchun raqamli kompensatsiya jarayoni asosan axborotni ko‘rish orqali idrok etishga asoslanadi. Bunda tovush orqali beriladigan ma’lumotlar boshqa vositalar yordamida o‘quvchiga yetkaziladi. Masalan, subtitrli (yozuvli) videodarslar

tovushdagi ma’lumotni matn shaklida ifodalaydi. Bu o‘quvchilarga og‘zaki nutqni to‘liq eshitmasdan ham mavzuni tushunish imkonini beradi. Signallovchi texnik vositalar, masalan, chiroq yoki tebranish orqali ogohlantiruvchi qurilmalar esa eshitish sezgisining o‘rnini bosadi. Bu turdagi texnologiyalar bolaga o‘qituvchi yoki sinfdoshlar tomonidan berilayotgan ogohlantirishni vizual yoki jismoniy teginish orqali his etishga yordam beradi. Nutq sintezatori va avtomatik yozuv dasturlari ham eshitishdagi cheklovni raqamli yo‘l bilan kompensatsiya qiladi. Ular og‘zaki nutqni yozma matnga aylantirib, eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilarga axborotni ko‘rish orqali o‘qib tushunish imkonini beradi. Shuningdek, virtual o‘qituvchilar, imo-ishora tarjimon dasturlari va interaktiv o‘quv platformalari o‘qituvchi va
o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni osonlashtiradi hamda o‘quv jarayonini individual xususiyatlarga moslashtiradi.

XULOSA.

Shunday qilib shuni ta’kidlash lozimki, raqamli kompensatsiya texnologiyalari maxsus pedagogika bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, eshitishida nuqsoni bor bolalarga bilim olish, muloqot qilish va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi. Ular nafaqat ta’lim jarayonini yengillashtiradi, balki bolalarda o‘ziga ishonchni oshiradi, mustaqil ishlashga rag‘bat uyg‘otadi, hamda jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sodiqova G. “Logopediya asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Xo‘jayev A. “Axborot texnologiyalari va ta’lim”. – Toshkent, 2020.
3. Rahimova M. “Nutq buzilishlarini tuzatishda zamonaviy metodlar”. – Toshkent, 2021.
4. X.Shermatova. Ta’limda axborot texnologiyalari. 2-qism. Darslik . F.: FDU, 2023
5. D.D. Mirzaakbarov, Qishloq xo‘jaligida axborot kommunikatsion texnologiyalari, o‘quv qo‘llanma, Farg‘ona, 2024 y.
6. Sh.Abdullayev. Raqamli va axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. F.: FDU, 2023. Y.